

O'BEKISTON RESPUB`LIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika-psixologiya fakulteti

Boshlang'ich ta'lim va s.t.i yo'nalishi

303-guruh 3-kurs talabasi

Sultonova Gulbahoraning

Matematika o'qitish metodikasi fanidan

Tayyorlangan

Kurs ishi

**Mavzu: Boshlang'ich sinflarda “kasr” tushunchasini
shakillantirish metodikasi.**

Bajardi: Sultonova G.

Tekshirdi: Tirkashev M.

Qarshi-2012

Mavzu: Boshlang'ich sinflarda "kasr" tushunchasini shakillantirish metodikasi.

Reja:

- I. Kirish
- II. Asosiy qism
 - a) Kasrlar bilan tanishtirishning mohiyati
 - b) Miqdorlarning ulushlari bilan tanishtirish metodikasi
 - c) Kasrlarni o'rganish metodikasi
- III. Xulosa
- IV. Adabiyotlar ro'yxati

Kirish

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-etibori avvalombor farzandlarimizning unib-o’sib, ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotda kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o’tkit haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta’limi tizimida bolayotga o’zgarishlar “Ta’lim tog’risidagi”gi qonunda hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko’satib o’tganidek, har bir o’qituvchi oldiga muhim vazifalar qo’yilmoqda.

Mustaqillik yillari ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar yagona maqsad- barkamol shaxsni va malakali mutaxassisni tarbiyalash ham muhim ahamiyatni kasb etadi.

Davlat ta’lim standartlari o’quv ani bo’yicha metodik majmualar (dastur, o’quv rejasi, darsliklarni) yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek o’quv fanlararo bog’lanish va bilimlarni muvofiqlashtirish tamoyili asosida o’quv fanlarning o’zaro bog’liqligi va fanlararo bo’lanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Boshlang’ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Boshlang’ich bilimlar yagona majmuani yaratadi, zaruriy metodologik tasavurlarni va fikirlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo’naltirilgan bo’ladi.

Boshlang’ich ta’lim metodikasining xususan, matematikadan boshlang’ich ta’lim metodikasining vazifalaridan biri o’qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlashda o’qitishni aqliy rivojlanishlariga ta’sirini jadallashtiradi.

Matematikadan boshlang’ich ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etish mumkin.

Oqitishning ma’lum mazmuni va o’qituvchilarning aqliy faoliyati bilan ta’sirlanadigan u yoki bu o’quv yo’nalishi uchun eng samarali usullarni qo’lay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o’zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishi zarur. Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang’ich sinf o’qituvchisi uchun o’quvchilarning aqliy faoliyatlati darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish muhimdir.

Dars o’tish jaroyonida o’qituvchi kursatmalilik va kurgazmali qurollardan foydalanib yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda muhim hisoblanadi.

Kasr mavzusini o’qitish metodikasi

1. Kasrlar bilan tanishtirishning mohiyati

O'uvchilarni kasrlar bilan tanishtirish dasturga binoan 4-sinf dan boshlanadi. Kasrlarni hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, sonni ulushini topish va berilgan ulushiga ko'ra sonning o'zini toppish bilan tanishadilar. 4-sinfda 1 ning ulushi va bir necha ulushi, uning yozma ko'rinishi tasavvurlariga ega bo'ladilar. Kasr tushunchasi geometriyada kesma ulushi, middorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog'langan.

Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo'laklarga bo'lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang'ich sinf dan oldin, ya'ni maktabgacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang'ich tushunchalari berilgan. Masalan, olma, tarviz, bodring, non va boshqalarni bir necha bolaklarga bo'lib ko'rgan va boshlang'ich tushunchalarni olgan. Shu maqsadda bolalarni ulushlar bilan tanishtirish, taqqoslashni o'rgatish, sonning ulushlari va ulushi bo'yicha sonni topishga doir masalalarni yechish ko'zda tutiladi. Aytib o'tilgan barcha masalalar ko'rgazmali qilib ochib berildi.

2. Miqdorning ulishlari bilan tanishtirish metodikasi.

3-sinfda birning ulushlari, ya'ni $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ vahakozo ulushlarga oid tasavvurlarni hosil qilishdan iborat. Kasrlarni o'rgatish ko'rgazma asosida tushuntiriladi. Bu ko'rgazmalarga meva, qovun, tarvuz, geometrik shakl, cho'p, qog'oz va boshqa atrofdagi narsalarni olish mumkin.

Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan, olmani teng ikkiga bo'lish, yordamida kasr hosil qilnadi. Shunga mos olmani teng bo'lmagan ikki bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini, demak, kasrni hosil qilmaslikni, tushintirishi kerak. Faqat teng bo'lakka bo'lganidagina kasr son yoki butunning ulushi hosil bo'lishini mustahkam singdirish lozim.

Butun sonning o'zaro teng bo'lgan ma'lum bir ulushiga sonning kasri deyiladi.

Berilgan narsani yoki bir butun sonni qancha teng qismga bo'linganligini ko'rsatuvchi sonni kasrning maxraji, shunday qismdan nechitasi olinganligini ko'rsatuvchi sonni kasrning surati

deyiladi. Umumiy holda kasrni $\frac{p}{q}$ tarzda ifodalash lozim. $\frac{p}{q}$ ko'rmishdagi

kasrlarga qarama qarshi kasrlarni $-\frac{p}{q}$ tarzda ifodalanadi

Kasrlar 3 xil bo'ladi

1. To'g'ri kasr

2. Noto'g'ri kasr

3. O'nli kasir

Agar kasrning surati uning maxrajidan kichik bo'lsa, bunday

kasrlarni to'g'ri kasrlar deyiladi. $\frac{1}{2}, \frac{4}{8}, \frac{1}{6} \dots$

Agar kasrning surati uning maxrajidan katta bo'lsa, bunday kasrlarni noto'g'ri kasrlar deyiladi. $\frac{5}{2}, \frac{7}{4}, \frac{17}{6}$

Agar kasrning maxraji 1 va 0 sonlaridan iborat bo'lsa bunday kasrlarni o'nli kasrlar deyiladi.

$$\frac{1}{10} = 0,1; \frac{1}{100} = 0,01 \dots$$

Turli xil geometric shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar hamda uning ba'zi shakllarini keltirib chiqaradilar. Masalan, kvadratni teng 4 bo'lakka bo'lishda, uni ikkita yo'l bilan bo'lib, burchaklarining o'zoro tengligiga hamda tamonlarining o'zoro tengligiga asoslanib shuningdek, kvadrat simmetriyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar.

Shuningdek boshqa o'quvchilarga doirani, ba'zilar to'g'ri to'rburchakni 4 bo'lakka bo'lish topshiriladi.

Bundan keyingi ish teng bo'laklarni ulushlardan bittasini, ikkitasini, uchtasini olib ularni qanday sonlar bilan yozish mumkinligiga o'qitiladi. Kasrlarni ikkidan bir, uchdan bir, to'rtidan bir kabi

o'qish va $\frac{1}{2}, \frac{1}{3}, \frac{1}{4}$ larga narsalarni qanday bo'lib, qancha qismi olinoyotganligi orasidagi

bog'lanishlarni hosil qilish lozim. Shu asosda surat va maxraj hamda kasr kabi yangi atamalar kiritmasdan o'qiladi. Lekin chiziqlarning pastida bo'tinni nechaga bo'lgan son, yuqorisiga necha ulushni olgan son yozilishi tushuntiriladi.

“Ulushlar” mavzusida shaklni teng bo'laklarga bo'lish asosida ulushlarni taqqoslash ham tushuntiriladi. Masalan, o'qituvchi 5 ta bir xil to'rburchakli qog'ozdan yo'lakchali qilib qirqishni taklif qiladi.

Bu yo'lakchaning birinchisini teng ikkiga, ikkinchisini teng to'rtga bo'lib ularni ustma ust qo'yish asosida har bir teng bo'laklarni taqqoslaydi. Unda $\frac{1}{2} > \frac{1}{4}, \frac{1}{4} > \frac{1}{18}, \frac{1}{5} > \frac{1}{6}$ kabi ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

3-sinfda sonning ulushini topishni amaliy masalalardan boshlash kerak. Masalan, uzunligi 12 sm bo'lgan qog'oz bo'lakchani olib uni 2 ga buklash topshiriladi. Bo'lakchaning yarminecha sm ? $\frac{12}{2} = 6$ sm. Endi bo'lakchani yana ikkiga bo'klab to'rt qismga bo'ladi.

Bo'lakchaning qanday qismi hosil bo'ladi va uning uzunligi qancha? Javob: $12:4=3$ sm $\frac{1}{4}$ qismi.

Bu ish chizg'ich yordamida o'lchab ko'riladi.

Kasrni o'rganish metodikasi

“Ulushlar” mavzusiga asoslangan holda, kasrlarning hosil bo'lish bilan birga 4-sinfda tanishtiriladi. Bunda ko'rgazmali qurol bilim berishning bosh mezon bo'ladi. Narsalarni, shakllarni teng bo'laklar5ga bo'lish va bo'laklardan bittasini, ikkitasini, uchtasini,... olish masalasi uni ifodalash va yozish asosiy vazifa bo'ladi. Bunda kasr, kasrning surati, maxraji kabi atamalar bilan tanishtirilib o'tiladi.

Kasrlarni yozish bajarish quyidagi qoidalarga amal qilish zarur.

Chiziq ostida yozilgan son kasrning maxfaji deyilib, butun narsa nechaga teng bo'lishini ifodalaydi./ kasrning ustida yozilgan son kasrning surati deyilib, teng qismlardan qanchasi olinganini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinfda maxraji 10 dan katta bo'lmagan kasrlar qaraladi.

Bundan keyin kasrlarni maydaroq ulushlarga maydalashva yiriklashga doir masalalar qaraladi. Masalan, $\frac{3}{4} = \frac{6}{8}$ yoki $\frac{2}{8} = \frac{1}{4}$ larni tushuntirish uchun bir xil yulakcha olamiz va 1-sini 4 ga teng bo'lakka 2-sini 8 ta teng bo'lakka bo'lib, 1-sidan 3 ta ulushni, 2-sidan 6 ta ulushni olamiz. Bu ikkita yulakchadagi yuzalar tengligiga ko'rinarli bo'ladi. Shuningdek $\frac{2}{8} = \frac{1}{4}$ ifoda tushuntiriladi.

Sonning kasrini topishga doir masalalarni yechishda 3-sinfda urganilgan sonning ulushini toppish masalasi asos bo'lib xizmat qiladi.

Masala. Uzunligi 10sm bo'lgan kesma chizilgan, $\frac{3}{5}$ qismi necha smga teng. Uzunligi 10sm bolgan kesma chiziladi va uning $\frac{1}{5}$ ulushini bilib olamiz.

I-----I-----I-----I-----I-----I

$10:5=2$ sm so'ngra kesmaning $\frac{3}{5}$ qismini top[ishda $2*3=6$ sm ishni bajaradi, yoki birdaniga $10:5*3=6$ sm deb bajarish mumkin.

Masala. Daftar 24 betlik, o'quvchi daftarning $\frac{5}{8}$ qismini to'ldiradi.

Necha bet yozilmay qoldi? Masala shartining qisqacha shartiquyidagicha:

Bor edi – 24bet

Yozildi- $\frac{5}{8}$ qimi

Qoldi-?

I----I----I----I----I----I----I----I

Yechish: masalani yechishda kesma tasvirdan foydalanamiz. Kesmani 24 bet deb olib, uni 8 ta teng bo'lakka bo'lamiz va uning 5 qismini ajratamiz.

- 1) $24:8=3$ bet
- 2) $3*5=15$ bet
- 3) $24-15=9$ bet yozilmadi.

Umumiy ifoda ko'rinishida $24-24:8*5=9$ bet 4-sinf darsligida berilgan sonning kasrini topishga ba'zi masalalarni yechishda katta, murrakkab ifodalar hosil bo'ladi.

Bunday masalalarning yechimlarini amallarni bajarish yordamida ifodalash kerak bo'ladi.


Masalan: oramda 240 m sim bor edi. Shu simning $\frac{5}{8}$ qismi ishlatildi. Qolganidan necha metr ortiq sim ishlatilgan?

Yechimning ifoda ko'rinishidagi yozivuni quyidagicha bajaramiz:

1. $240:8*5=150$ m
2. $240-150=90$ m
3. $150-90=60$ m
4. umumiy ifodadan $240:8*5(240-240:8*5)$

Kasr tushunchasini shakllantirish har xil premetrlarni teng qismlarga bo'lishdan boshlanadi, bu premetrlarning har birini biz bir butun deb qaraymiz. Abstrak kasr tushunchasi ko'rinishidan shu konkret bo'lishdan singdiriladi

may



dalananishdan, yoyilishdan kelib chiqqan bo'lishi kerak.


Bu boshlangich bosqichni o'quvchi bir necha yil ilgari bosib o'tgan maktabgacha yoshdayoq unga olmalar, proyneklar va konfetlarni bo'lishga, qovun va tarvizlarni, bodring, pamiidorlarni kesishga to'g'ri kelgan edi va usha davridayoq ko'pmarta butunning yarmi, choragi, uchdan biri va boshqa usullar haqida aytish mumkin. Bolalarning shaklni teng bo'laklarga bo'lish borasida to'plangan tasvirlari va malakalari ularda butunning ulushlari tushunchasini tarkik topishda asosiy boshlang'ich tayanch bo'ladi.

Kasrlarni o'rganishda ko'rsatmalilik va ko'rgazma qo'rollar masalasi ayniqsa muhimdir. Kasrlarni o'rganishning bu bosqichida o'tish to'la ko'rgazmali bo'lishi, ayniqsa zarur shuning uchun ulushlarning hosil bo'lish jarayoni ko'rilyotganligi munosabati bilan iloji boricha kuproq aniq predmetlar: olma, lenta va boshqa har xil geometrik shakllarning modellarini teng bo'laklarga bo'lishga doir amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish kerak.

Bolalarni ulushlar hosil bo'lishi bilan tanishtirishga doir birinchi darsni taxminan bunday boishlash lozim.

“Bugun biz yangi sonlar bilan tanishamiz. Mening qo'limdagi nima? (oquvchi olmani ko'rsatadi) qaranglar men uni nima qilayapman (u olmani teng ikkiga ajratadi) har bo'lakni nima deb atash mumkin? (olmaning yarmi bunichi ?) (butun olmani kursatadi) bir butun olma nechta yarimta olmaga teng?” (ikkita)

Predmetlarni teng bo'laklarga bo'lish bilan bir vaqtda ularni teng bo'lmagan bo'laklarga bo'lish bilan ham ish kurish mumkin. Masalan, doiraning bitta modulini ikkita teng bo'lakka, ikkinchisini umuman teng bo'lmagan ikkita bo'lakka bo'lish kerak.



Bunday topshiriqlar bajarishda o'quvchilar doirani bo'lishning usullaridan o'xshashlik va farqini aniqlay oloadilar: u holda ham bu holda ham doira ikkiga bo'linadi lekin birinchi holda ikkita teng bo'lakdan bo'lakka, ikkita holdan esa ikkita teng bolmagan bo'lakka bo'linadi va har bir bo'lak doiraning S qismini tashkil qiladi.

Geometrik shakillar to'plami bilan ishlanayotganda o'quvchilar bu shaklning ko'p xossalarni qaytaradilar va yana ko'p xossalari bilan tanishadilar. Masalan, kvadratni teng to'rt bo'lakka bo'lishda o'quvchilar bu topshiriqni bajarishning 2 ta usuli mavjudligini oson payqaydilar. Ular kvadrat tamonlari va burchaklari o'zaro tengligiga yana bir bor ishonch hosil qiladilar, kvadrat simmetriyasi haqida birinchi tasavurga ega bo'ladi.

Turli shakllarni teng bo'laklarga bo'lishda va bunday bo'laklarning bittasidan, ikkitasidan va hokozadan iborat shakllarni o'rganish kasr sonlarni belgilash uchun zarur bo'lgan atamalar va belgilarni kiritishga imkon beradi. Shunday qilib kasrlarni hosil qilish jarayonini namoyish qilishdan bolalar etiborini kasrlar o'z nomlarini qanday prinsipda olishlariga qaratilishlari lozim.

Bolalarni turli ulushlarning nomlari va hosil bo'lishi bilan tushuntirib bo'lgach ularga har xil usulini qanday belgilashini ko'rsatish zarur. $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{3}$ va boshqa ko'rinishdagi yozuvlar bilan “surat” va “maxraj” atamalarini kiritmasdan tushuntiriladi. O'qituvchi ikkidan bir ulushini talab qilsa, buning uchun o'quvchilar chiziq chizishadi va chiziq ostiga ikkini, chiziq ustiga birni yozishadi. $\frac{1}{2}$;

kasrlarning hosil bo'lishi bilan o'quvchilarni tanishtirish 3-sinfdan boshlanadi. Bunda ko'rgazmalilik juda muhimdir. Kasrlar hosil bo'lishining qaralishi munosabati bilan har xil aniq predmetlarni teng qismlarga bo'lishga doir amaliy mashg'ilotlar bajarilishi kerak har xil shakllarni teng qismlarga bo'lish va shunday qismlardan bittasini, ikkitasini va bundan ortiqlarini

o'z ichiga oladigan qaralishi zarur atamalarni va kasr sonlarni belgilash simvolikasini kiritish imkonini beradi.

Shunga o'xshash imkoni boricha har xil shakllardan foydalanib, o'quvchilarni boshqa maxrajli kasrlar bilan tanishtiriladi.

Bolalarni kasrlar bilan tanishtirishning bu bosqichida kasrlarni maydaroq usullariga maydalash jarayonini ko'rish va bunga teskari jarayonini ko'rish imkonini beradigan yagona usul geometrik interpretatsiyadir. Kasrni maydaroq usullariga maydalashni doiralardan, kvadratdan, to'g'ri to'rtburchakdan, kesmalardan foydalanish kerak. Bu holatlarda har qaysi katak $\frac{1}{8}$ ulushni tasvirlaydi. Ikkita katak $\frac{2}{8}$ ni yoki $\frac{1}{4}$ ni tashkil qiladi. $\frac{2}{8} = \frac{1}{4}$ ekanini o'quvchilar chizmaga qarab tanishadilar. Ustki to'rt to'rtburchakda 8 dan 6 ni; pastki to'rt to'rtburchakda esa to'rt dan uchni shtrixlaymiz. Taqqoslash yo'li bilan mos to'g'ri to'rtburchaklar o'zaro teng ekaniga demak, $\frac{3}{4} = \frac{6}{8}$ yoki $\frac{6}{8} = \frac{3}{4}$ ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Sonning ulushini topishga doir masalalarni yechish mos kasrning aniq mazmuni ochiladi va mustahkamlanadi. Bunday masalalarni yechishda sonning bir usulini topishga doir masalalarni yechish malakasi asos bo'ladi.

Sonning kasrini topishda doir masalalarni yechish mos ko'rsatmalilikka asoslangan bo'lishi kerak.

O'quvchilarni sonning kasrini topishga doir masalalarni yechish bilan tanishtirishni amaliy xarakterdagi masalani o'rganib chiqish yaxshi samara beradi.

“Uzunligi 10 sm bo'lgan kesma chizing. Shu kesmaning $\frac{3}{5}$ qismi necha santimetr ga teng?



O'quvchilar uzunligi 10 sm bo'lgan kesmani chizishadi va oldin bu kesmaning $\frac{1}{5}$ qismi necha sm ga teng ekanini topishadi: $10:5=2$ (sm) so'ngra kesmaning $\frac{3}{5}$ qismi necha sm ga teng ekanini topishadi.

I----I----I----I----I

10 sm

Ulushlar. Sonning bir necha qismi ulush tushunchasiga olib keluvchi misollar bilan tanishib chiqamiz.

1. Doira chizing va uni teng ikki bo'lakka bo'ling. Bo'laklardan birini bo'yang. Siz doiraning qanday qismini (qanday bo'lagini, usishini) bo'yadingiz?



Yana bir doira chizing va uni teng 4 ta bo'lakka bo'ling. Bo'laklardan bittasini bo'yang. Bu gal doiraning to'rtidan bir qismini (ulushini) bo'yadingiz. To'rtidan uch qismi bo'yalmagan.

2. Daftaringizga biror AB kesma chizing. Uning o'rtasini C nuqta bilan belgilang. Natijada AB kesma teng ikki bo'lakka ajratildi: $AC=CB$. Har bir bo'lak AB ning ikkidan bir qismini (yarim) tashkil qiladi.

3. Nodira opa bitta butun tortni teng 8 bo'lakka bo'ldi. Shundan bir bo'lagini o'g'liga berdi. O'g'li tortning qanday uushini oldi? (O'g'li 8 dan 1 usushini oldi)

Doirani, kesmani, kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchakni bir butun deb qarash mumkin. Butunning teng bo'laklari usushlar deyiladi. Odatda 2 dan 1 ulushli yarim, 4 dan 1 ulush – chorak, 8 dan ulush esa nimchorak deyiladi.

Oddiy kasr. Uning qo'shilishi va yozilishi.

AB kesma teng 4 bo'lakka bo'lingan.

A C D F B

I-----I-----I-----I-----I

Ulushlarni raqamlar orqali ifodalash mumkin. Avval "___" chiziladi. Uning tagiga kesma nechta bo'lakka ajratilganligi ya'ni 4, va chiziqlichening ustiga shu teng bo'laklardan nechta olinganligi, ya'ni 3 yoziladi. Natijada $\frac{3}{4}$ yozuv hosil bo'ladi. "___" "kasr chizig'i"

deyiladi. AF kesma AB kesmaning $\frac{3}{4}$ qismini tashkil qiladi.

Butunning bitta yoki bir nechta teng ulushlardan tuzilgan son kasr deyiladi.

Kasr chizig'i ustidagi 3 raqami kasrning surati, tagidagi 4 raqami kasrning maxraji deyiladi. Kasrlar quyidagicha o'qiladi:

$\frac{1}{2}$ - ikkidan bir, $\frac{3}{5}$ - beshdan uch; $\frac{5}{8}$ - sakkizdan besh.

Dars ishlanma.

Mavzu: Kasrlarni ayirish

Maqsad: Bir xil maxrajli kasrlarni ayirish qoidalari bilan tanishtirish. Ikki ayirma yordamida noma'lum sonni topishga doir masalalar yechish.

Darsning usuli: Aralash, yangi bilim beruvchi dars.

Darsning jihozi: Darslik, ko'rgazmali qurollar.

I. Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Salomalashish, davomadni aniqlash, o'quvchilar tayyorgarligini tekshirish.

II. O'tilganlarni takrorlash.

1. 3 soning yig'indisi va ularning ko'paytmasi 6 ga teng. Shu sonlarni ayting. (1,2,3).
2. 2 soning yig'indisi ularning ayirmasiga teng. Shu sonlarni toping. (Ikkinchi son 0 ga teng). Ayirma kamayuvchiga teng. (Ikkinchi son 0 ga teng) Kamayuvchi ayiriluvchidan 400 ta lichik. Ayirmani toping (400).

III. Yangi mavzu bayoni

Ayiriluvchi 0 bo'lsa, ayirma kamayuvchiga teng bo'ladi. Kamayuvchi ayiriluvchiga teng bo'lsa, ayirma 0 bo'ladi.

$$420 - 0 = 420 \qquad 555 - 555 = 0$$

1- qadam Birliklarni ayiramiz	2 – qadam O'nliklarni ayiramiz	3 – qadam Yuzliklarni ayiramiz	4 – qadam Mingliklarni ayiramiz	5 – qadam O'n mingliklarni ayiramiz	Javob
-------------------------------------	--------------------------------------	--------------------------------------	---------------------------------------	--	-------

$17 - 9 = 8$	$7 - 7 = 0$	$14 - 8 = 6$	$5 - 4 = 1$	$3 - 2 = 1$	
<u> 36471</u> <u> 24879</u> 8	<u> 36471</u> <u> 24879</u> 08	<u> 36471</u> <u> 24879</u> 608	<u> 36471</u> <u> 24879</u> 1608	<u> 36471</u> <u> 24879</u> 11608	36487- 24879=11 608

2- misol.

<u> 53479</u>	<u> 85945</u>	<u> 24843</u>
<u> 21257</u>	<u> 63629</u>	<u> 14672</u>
32222	22326	10171

Xulosa

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinfda olingan bilimlar kelajakda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishda o'quvchilarga mavzularni oddiydan murakkabga qarab olib borish lozim. Shundagina dars tushunarli va qiziqarli bo'lib yetkaziladi. Boshlang'ich sinflarda kasr tushunchasini shakllantirish 3-sinfdan ulush tushunchalari bilan olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda kasr tushunchasini ko'rgazmali qo'rollarsiz masalan, narsalar olma, tarvuz, qovun va geometrik shakllar: Doira, kesma, kvadrat, to'g'ri to'rburchaklarsiz olib borib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinflarda kasr tushunchasi o'quvchilarga qismlarga bo'lib o'rganilishini, chamalashni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent: ma'naviyat 1997 yil.
2. Bekboyeva N.M., Adambekova G.A. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent o'qituvchi 1996 yil
3. Jumayev M.E., Tojiyeva Z.G. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent fan va texnologiya 2005 yil
4. Ismoilova D. Va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Ma'ruzalar matni Termiz 2005 yil
5. Jumayev M.E. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'uloti" Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2006 yil